


## XI. KORXONALAR VA TASHKIOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

### Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2026- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

### Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2026- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

Ro'yxatdan o'tgan  
(birlikda)

Faoliyat ko'rsatayotgan  
(birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (birlikda)



### Hududlar kesimida


Qarshi sh	6251
Qarshi	2351
Kitob	2213
Koson	2160
Yakkabog'	2122
Qamashi	1914
Shahrisabz sh	1809
Chiroqchi	1706
Shahrisabz	1609
Nishon	1540
G'uzor	1456
Ko'kdala	1452
Kasbi	1387
Dehqonobod	1243
Mirishkor	1085
Muborak	990

### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2026- yil 1- aprel holatiga 31 288 tani tashkil etdi, ulardan 26 095 tasi tadbirkorlik subyektlari. Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 31,2 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 15,5 foiz, sanoat – 9,7 foiz, qurilish – 6,7 foiz, hududiy kesimda esa eng ko'pi Qarshi shahrida – 20,2 foiz, tumanlardan Qarshi – 7,5 foiz, Kitob – 7,1 foiz, Koson – 6,9 foiz va Yakkabog' da – 6,8 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 2026- yil yanvar-mart holatiga ko'ra, birlikda



### Hududlar kesimida

Qarshi sh	245
Ko'kdala	124
Qarshi	122
Kitob	94
Shahrisabz sh	88
Koson	82
Yakkabog'	76
G'uzor	74
Chiroqchi	71
Shahrisabz	69
Qamashi	66
Kasbi	64
Nishon	64
Mirishkor	37
Dehqonobod	36
Muborak	34


### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




2026- yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 1 346 tani tashkil etdi. Ularni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qaralganda savdo – 445 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 342 ta, sanoat – 132 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 96 ta, qurilish – 61 ta, tashish va saqlash – 45 ta, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 41 ta, axborot va aloqa – 29 ta, boshqa turlar – 155 tani tashkil etdi.

# Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2026- yil 1- aprel holatiga 26 095 tani tashkil etdi, ulardan 25 881 tasi kichik korxonalar va mikrofirmalar. Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 37,6 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 18,6 foiz, sanoat – 11,5 foiz, qurilish – 7,9 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 6,5 foiz, tashish va saqlash – 3,2 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 2,8 foiz, axborot va aloqa – 1,7 foiz, boshqa turlari – 10,2 foizni tashkil etdi.


## Hududlar kesimida

Qarshi sh	5 273	Nishon	1 293
Qarshi	2 000	Shahrisabz	1 280
Kitob	1 822	Ko'kdala	1 206
Yakkabog'	1 769	G'uzor	1 163
Koson	1 767	Kasbi	1 149
Qamashi	1 590	Dehqonobod	965
Shahrisabz sh	1 558	Mirishkor	877
Chiroqchi	1 367	Muborak	802


# Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

## 2026- yil yanvar-mart holatiga ko'ra, birlikda


### Yillar kesimida soni




### Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Sanoat



Qurilish




Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2026- yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 1 324 ta bo'lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 1 319 ta;
- yirik korxonalar 5 tani tashkil etdi.


### Hududlar kesimida

Qarshi sh	236	4,5 %
Ko'kdala	124	10,3 %
Qarshi	121	6,1 %
Kitob	93	5,1 %
Koson	82	4,6 %
Shahrisabz sh	82	5,3 %
Yakkabog'	76	4,3 %
G'uzor	73	6,3 %


Chiroqchi	69	5,0 %
Shahrisabz	69	5,4 %
Qamashi	64	4,0 %
Nishon	63	4,9 %
Kasbi	63	5,5 %
Dehqonobod	36	3,7 %
Mirishkor	36	4,1 %
Muborak	32	4,0 %

# Faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlari to'g'risida ma'lumot

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Hududlar kesimida eng ko'p kichik biznes subyektlari Qarshi shahrida (20,4 foiz), Qarshi (7,7 foiz), Kitob (7,0 foiz), Yakkabog' (6,9 foiz), Koson (6,8 foiz) va Qamashi (6,1 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki, ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.


## Hududlar kesimida

Qarshi sh	5 273	Nishon	1 293
Qarshi	2 000	Shahrisabz	1 280
Kitob	1 822	Ko'kdala	1 206
Yakkabog'	1 769	G'uzor	1 163
Koson	1 767	Kasbi	1 149
Qamashi	1 590	Dehqonobod	965
Shahrisabz sh	1 558	Mirishkor	877
Chiroqchi	1 367	Muborak	802


# Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari to'g'risida ma'lumot

2026- yil yanvar-mart holatiga ko'ra, birlikda)


## Yillar kesimida soni




## Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Sanoat




Qurilish




Savdo




Tashish va saqlash




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.

## Hududlar kesimida

Qarshi sh	236	4,5 %
Ko'kdala	124	10,3 %
Qarshi	121	6,1 %
Kitob	93	5,1 %
Koson	82	4,6 %
Shahrisabz sh	82	5,3 %
Yakkabog'	76	4,3 %
G'uzor	73	6,3 %

Chiroqchi	69	5,0 %
Shahrisabz	69	5,4 %
Qamashi	64	4,0 %
Nishon	63	4,9 %
Kasbi	63	5,5 %
Dehqonobod	36	3,7 %
Mirishkor	36	4,1 %
Muborak	32	4,0 %


## Korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyati bo'yicha ma'lumot

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar


2026-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda

### Hududlar kesimida

Qamashi	<b>554</b>
Nishon	<b>488</b>
Ko'kdala	<b>464</b>
Yakkabog'	<b>404</b>
Koson	<b>376</b>
Kasbi	<b>375</b>
Qarshi	<b>337</b>
Mirishkor	<b>321</b>
Shahrisabz	<b>289</b>
Kitob	<b>277</b>
Dehqonobod	<b>238</b>
G'uzor	<b>188</b>
Chiroqchi	<b>186</b>
Muborak	<b>156</b>
Qarshi sh	<b>152</b>
Shahrisabz sh	<b>49</b>



Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi. Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning eng ko'p qismi Qamashi (11,4 foiz), Nishon (10,1 foiz) va Ko'kdala (9,6 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.




## Sanoat yoʻnalishida faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar va tashkilotlar toʻgʻrisida maʼlumotlar

*2026- yil 1- aprel holatiga koʻra, birlikda*

### Hududlar kesimida

Qarshi sh	584
Kitob	364
Yakkabogʻ	269
Shahrisabz	246
Shahrisabz sh	243
Qarshi	209
Koson	161
Chiroqchi	161
Gʻuzor	150
Qamashi	127
Koʻkdala	112
Kasbi	100
Nishon	92
Muborak	80
Mirishkor	67
Dehqonobod	58



Sanoat – iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega boʻlgan tarmoqlardan hisoblanadi.

Sanoat korxonalarini soni jami korxonalar va tashkilotlarning 9,7 foiz ulushini tashkil etadi. Shundan – 88,2 foizini ishlab chiqarish sanoati, 8,8 foizini togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, 1,9 foizini suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilitatsiya qilish va 1,1 foizini elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash tashkil etgan.




# Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

2026-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Qarshi sh	637
Qarshi	247
Koson	193
Shahrisabz sh	121
Chiroqchi	106
Yakkabog'	103
Kasbi	102
Muborak	83
Qamashi	82
Shahrisabz	78
Kitob	77
Nishon	67
G'uzor	61
Ko'kdala	59
Mirishkor	51
Dehqonobod	46



Mamlakatimizda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki: - binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 53,2 foiz ulushni tashkil etdi; - ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishidagi korxonalar soni esa 21,9 foiz ulushni tashkil etdi. - fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishidagi korxonalar soni 24,9 foiz ulushni tashkil etdi;



# Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

2026-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Qarshi sh	2 113
Qarshi	750
Koson	739
Chiroqchi	631
Kitob	623
Shahrisabz sh	604
Yakkabog'	602
Qamashi	529
G'uzor	517
Dehqonobod	428
Nishon	427
Ko'kdala	400
Kasbi	396
Shahrisabz	387
Muborak	329
Mirishkor	301



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,6 foizi yoki 9 739 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:


- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 66,8 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 23,9 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 9,3 foiz ulushni tashkil etdi.



## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar 2026- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

### Hududlar kesimida

Qarshi sh	419
Kitob	181
Shahrisabz sh	163
Yakkabog'	138
Shahrisabz	124
Qarshi	100
Qamashi	82
Chiroqchi	77
G'uzor	72
Koson	64
Dehqonobod	61
Ko'kdala	55
Nishon	53
Muborak	36
Kasbi	35
Mirishkor	34




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2026- yil 1- aprel holatiga 1 694 taga yetib, ularning 1 679 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2026- yil 1- aprel holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 7,2 foiz ulushini tashkil etdi;

restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 92,8 foiz ulushini tashkil etdi.




## Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

2026-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda

### Hududlar kesimida


Qarshi sh	159
Chiroqchi	47
Qarshi	41
G'uzor	27
Shahrisabz sh	26
Koson	25
Kitob	21
Kasbi	18
Nishon	16
Yakkabog'	16
Ko'kdala	11
Dehqonobod	10
Qamashi	8
Shahrisabz	8
Mirishkor	4
Muborak	4



2026-yil 1-aprel holatiga kompyuter dasturlash va aloqa bo'limida korxonalar va tashkilotlar soni, axborot va kommunikatsiyalar sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining 69,9 foizini;

Axborot xizmatlari va nashirlik faoliyatini rivojlantirish bo'limida faoliyat yurituvchi korxonalar soni 27,4 foizini;

Ko'rsatuvlar va teleradioeshittirishlar yaratish hamda kino, videofilmlar, teledasturlar, fonogrammalar va yozuvlar ishlab chiqarish yo'nalishlarida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni esa 2,7 foizni tashkil etdi.




## Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar va tashkilotlar toʻgʻrisida maʼlumotlar

2026- yil 1- aprel holatiga koʻra, birlikda

### Hududlar kesimida

Qarshi sh	256
Kitob	114
Yakkabogʻ	91
Shahrisabz sh	90
Qarshi	71
Koson	69
Shahrisabz	58
Qamashi	51
Gʻuzor	48
Chiroqchi	48
Nishon	44
Kasbi	39
Muborak	32
Dehqonobod	31
Mirishkor	29
Koʻkdala	20




Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat koʻrsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi – 1091 ta yoki 67,4 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga toʻgʻri kelgan.

Yoʻnalishlar boʻyicha tahlil shuni koʻrsatdiki:

ushbu sohadagi korxonalar sonining 93,3 foizi sogʻliqni saqlash yoʻnalishiga toʻgʻri keladi; yashash uchun joy bilan taʼminlangan holda parvarishlash yoʻnalishidagi korxonalar sonining 2,5 foizni tashkil etdi;

yashash uchun joy bilan taʼminlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish yoʻnalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 4,2 foizini tashkil etdi.




## Tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

2026- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda

### Hududlar kesimida

<b>Qarshi sh</b>	<b>274</b>
Qarshi	89
<b>Shahrisabz sh</b>	<b>63</b>
Kitob	50
<b>Yakkabog'</b>	<b>48</b>
G'uzor	46
<b>Koson</b>	<b>40</b>
Mirishkor	37
<b>Shahrisabz</b>	<b>37</b>
Kasbi	35
<b>Ko'kdala</b>	<b>25</b>
Dehqonobod	22
<b>Chiroqchi</b>	<b>19</b>
Qamashi	17
<b>Nishon</b>	<b>16</b>
Muborak	15



2026- yil 1- aprel holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 2,7 foiz ulushini tashkil etdi.


Tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

- quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 77,6 foizni tashkil etdi;
- ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining korxonalar soni 18,8 foizni;
- pochta va kuryerlik yo'nalishidagi korxonalar soni 3,5 foizni;
- havo transporti yo'nalishida korxonalar soni 0,1 foizni tashkil etgan.



## Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha umumiy ma'lumot

2026-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda



Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning birlashtirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog'liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:


- xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta'minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Yetakchi o'rinni 51 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi egallagan. Bu viloyatda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 29,7 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Rossiya Federatsiyasi (ulushi 14,5 foiz), Turkiya (ulushi 12,2 foiz), Avg'oniston (ulushi 8,7 foiz) va Janubiy Koreya (ulushi 5,2 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

### Hududlar kesimida

Qarshi sh	46	Kasbi	8
Kitob	18	Chiroqchi	8
Muborak	14	Shahrisabz sh	6
Nishon	13	Qamashi	5
G'uzor	10	Ko'kdala	5
Koson	9	Shahrisabz	5
Qarshi	8	Yakkabog'	5
Mirishkor	8	Dehqonobod	4

## Davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar to'g'risida ma'lumot



O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 85 tasi qo'shma korxonalar, 87 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

## Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy va qo'shma korxonalar soni to'g'risida ma'lumot

qo'shma korxonalar		xorijiy korxonalar
<b>6</b>	G'uzor	<b>4</b>
<b>2</b>	Dehqonobod	<b>2</b>
<b>2</b>	Qamashi	<b>3</b>
<b>3</b>	Qarshi	<b>5</b>
<b>5</b>	Koson	<b>4</b>
<b>4</b>	Kitob	<b>14</b>
<b>4</b>	Mirishkor	<b>4</b>
<b>6</b>	Muborak	<b>8</b>
<b>5</b>	Nishon	<b>8</b>
<b>2</b>	Kasbi	<b>6</b>
<b>3</b>	Ko'kdala	<b>2</b>
<b>8</b>	Chiroqchi	-
<b>4</b>	Shahrisabz	<b>1</b>
<b>3</b>	Yakkabog'	<b>2</b>
<b>27</b>	Qarshi sh.	<b>19</b>
<b>1</b>	Shahrisabz sh.	<b>5</b>

## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Yuridik shaxslarning faollik darajasi** – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar** – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2026- yil 1- aprel holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.